


“Biz korrupsiyaga qarshimiz” va “Korrupsiya rivojlanishimizga to‘siq” mavzularida huquq - targ‘ibot idoralari va keng jamoatchilik vakillari ishtirokida universitetda davra suhbatiprofilaktik tadbiri o‘tkazildi.

Joriy yilning 16-fevral kuni Termiz davlat universiteti “Kimyo” fakulteti faollar zalida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-noyabrdagi PF-200-son Farmoni bilan tasdiqlangan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 2023-2024-yillarga mo‘ljallangan davlat dasturining 25-bandida belgilangan **“Yoshlarda korrupsiyaga nisbatan toqatsiz munosobatni shakllantirish”** vazifasiga ko‘ra universitet rektori tomonidan 2023-yil 18-dekabr kuni tasdiqlangan reja-jadvalga asosan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari vakillari bilan oliygohning “Kimyo” va “Yuridik” fakultetlari professor-o‘qituvchilari va talaba yoshlari hamda akademik litsey pedagoglari va o‘quvchilari ishtirokida (ZOOM videokonferensiya dasturi orqali) davra suhbatitadbiri amalga oshirildi.

Davra suhbatida Surxondaryo viloyati prokuraturasi uyushgan jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi alohida muhim ishlar bo‘yicha katta tergovchisi **Babaniyazov Azizjon**, Surxondaryo viloyati Sudining jinoyat ishlari bo‘yicha sudyasi **Abduraimov To‘lqin**, Surxondaryo viloyati sudi iqtisodiy sudlov hay‘ati sudyasi **Begimov Rufat**, Surxondaryo viloyati IIB huzuridagi Tergov boshqarmasi tergovchisi, ichki ishlar mayori **Raximov Shoxjaxon**, Surxondaryo viloyati IIB jinoyat qidiruv boshqarmasi korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi xodimi, ichki ishlar kapitani **Narzullaev Shoxruz** hamda oliygoh o‘quv ishlari prorektori **To‘raev Rasul**, korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi boshlig‘i **Devonov Ulug‘bek**, korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi bosh mutaxassisi **Mansurov Abdullo**, “Kimyo” fakulteti dekani **To‘raev Xayit**, 25 nafar professor-o‘qituvchilar hamda 450 nafar talaba yoshlar va 120 nafar akademik litsey o‘quvchilari qatnashishdi.



Tadbirda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari vakillari so'zga chiqishib, korrupsiyaga qarshi kurashish masalasi - davlatni tashkil qilishning doimiy masalalaridan biri ekanligi, korrupsiyani bir yoki ikki idoraning sa'y-harakati bilan yo'q qilib bo'lmasligi, qachonki barcha fuqarolarimiz, jamiyat unga qarshi birgalikda kurashib, uning ildizlarini yo'q qilishga kirishsagina ijobiy natijaga erishishi mumkinligini ta'kidlab o'tishdi.

Shuningdek, ta'lim-tarbiya tizimi va imkoniyatlari sezilarli darajada kengaytirilganligi, ilk marotaba ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim va tarbiya tashkil etilishi, oliy ta'lim tashkilotlariga akademik erkinlik berilishi, tanlov asosida davlat hisobidan bepul oliy ma'lumot olish imkoniyati berilishi, nodavlat ta'lim tashkilotlari qo'llab-quvvatlanishi hamda eng muhimi, o'qituvchilarimiz sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilinishi belgilanayotganligi va shu asnoda korrupsiyaga qarshi birgalikda kurashishlik lozimligi hamda mazkur toifadagi jinoyatlarni ko'rish amaliyoti va jazo turlari to'g'risida tushuntirishlar berildi.



Oliygo'hnning “Ijtimoiy fanlar” va “Yuridik” fakultetlari talaba yoshlari orasida “Korrupsiyaga qarshi kurashish” mavzusida davra suhbatini o'tkazildi.

Joriy yilning 22-fevral kuni, Termiz davlat universiteti “Ijtimoiy fanlar” va “Yuridik” fakultetlari hamkorligida **“Korrupsiyaga qarshi kurashish”** mavzusi yuzasidan uchrashuv o'tkazildi. Tadbirda universitet Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens nazorat” tizimini boshqarish bo'limi boshlig'i **U.Devonov**, bo'lim bosh mutaxassisi **A.Mansurov**, Ijtimoiy fanlar fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari **I.Bobomurodov**, Yuridik fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari **H.Bo'ronov**, tyutorlar hamda talabalar ishtirok etishdi.

Davra suhbatida universitet “Komplaens nazorat” tizimini boshqarish bo'limi boshlig'i **U.Devonov** **“Korrupsiyaga qarshi kurashish”** mavzusi yuzasidan ma'ruza qildi.

Ochiq muloqot tarzida bo'lib o'tgan tadbirda talabalar bilan mavzu yuzasidan savol-javob o'tkazildi, talabalarni qiziqtirgan savollarga javob berildi.

Termiz davlat universitetini **“korrupsiyasiz hudud”** ga aylantirishda barcha mas'ul ekanligi ta'kidlab o'tildi.

